



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

ILMIY MATNDA KIRISH KONSTRUKSIYALARINING SEMANTIK GURUHLARI

Djuraeva Shahlo G‘ulom qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, o‘qituvchi

Izabela Dikson

Koszalin texnologiya universiteti, assistent professor (PhD)

Annotatsiya

Maqolada ilmiy matnda qo‘llaniladigan kirish konstruksiyalarning semantik guruhlarini tahlil qilinadi. Kirish birliklarining asosiy vazifasi so‘zlovchining bayonga nisbatan munosabatini ifodalash bo‘lib, ular turli semantik yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda kirish konstruksiyalar xabarning ishonchlilik darajasini ifodalovchi, mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi, axborot manbasini bildiruvchi, baholash va emotsional munosabatni ifodalovchi hamda nutqni tashkil etish va izchillikni ta‘minlovchi guruhlariga ajratiladi.

Kalit so‘zlar: kirish konstruksiyalari, kirish birliklari, modallik, sintaktik maqom, semantika, pragmatika, ilmiy uslub, diskurs.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ВВОДНЫХ КОНСТРУКЦИЙ В НАУЧНОМ ТЕКСТЕ

Джурова Шахло Гулом кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков, преподаватель

Изабела Диксон

Кошалинский технологический университет, ассистент-профессор (PhD)

Аннотация

В статье рассматриваются семантические группы вводных конструкций, функционирующих в научном тексте. Основная функция вводных единиц заключается в выражении отношения говорящего к высказыванию, что реализуется в различных семантических направлениях. В исследовании выделяются вводные конструкции, выражающие степень достоверности сообщения, логические связи, источник информации, оценочное и эмоциональное отношение, а также обеспечивающие организацию и связность научного текста.

Ключевые слова: вводные конструкции, вводные единицы, модальность, синтаксический статус, семантика, прагматика, научный стиль, дискурс.

SEMANTIC CLASSIFICATION OF PARENTHETICAL CONSTRUCTIONS IN SCIENTIFIC DISCOURSE

Djuraeva Shahlo G‘ulom qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Lecturer

Izabela Dikson

Koszalin University of Technology, Assistant Professor (PhD)

Abstract

The article examines the semantic groups of introductory constructions used in scientific texts. The primary function of these units is to express the speaker's attitude toward the utterance, which is realized through different semantic categories. The study identifies introductory constructions expressing the degree of reliability of information, logical relations, source of information, evaluative and emotional attitude, as well as those organizing discourse and ensuring textual cohesion.

Keywords: introductory constructions, introductory units, modality, syntactic status, semantics, pragmatics, scientific style, discourse.

Tilshunoslikda kirish konstruksiyalarining sintaktik, semantik va pragmatik maqomini aniqlash masalasi uzoq yillardan buyon dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e‘tirof etib kelinadi. Kirish birliklari nutq jarayonida so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi muhim vosita bo‘lib, ular nafaqat gapning mazmuniy tuzilishiga, balki uning kommunikativ va pragmatik yo‘nalishiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli turli davrlarda faoliyat yuritgan tilshunos olimlar tomonidan kirish konstruksiyalari turli nuqtai nazarlardan tadqiq etilgan va ularning til tizimidagi o‘rni yuzasidan ko‘plab ilmiy qarashlar shakllangan.

Kirish konstruksiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqishda rus tilshunosligining yirik

vakillari V. V. Vinogradov, A. A. Kornilov va V. Z. Panfilovlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu olimlar kirish birliklarini gap modalligini ifodalovchi vositalar sifatida talqin qilib, ular orqali soʻzlovchining ishonchi, gumoni, taxmini, bahosi yoki hissiy munosabati ifodalanishini taʼkidlaganlar. Ularning fikricha, kirish konstruksiyalari gapning predikativ asosiga kirmasa-da, uning umumiy mazmunini shakllantirishda muhim rol oʻynaydi. Mazkur qarashlar keyinchalik kirish birliklarining kommunikativ va funksional imkoniyatlarini chuqurroq oʻrganishga zamin yaratgan.

Kirish konstruksiyalarining grammatik va semantik xususiyatlari A. I. Anikin, A. I. Studneva, P. A. Lekant hamda L. I. Vasilenko tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotchilar kirish birliklarining sintaktik jihatdan mustaqilligi, grammatik bogʻlanishlardan nisbatan erkinligi hamda gap tarkibidagi oʻziga xos pozitsion xususiyatlarini aniqlashga alohida eʼtibor qaratganlar. Ularning ilmiy izlanishlarida kirish konstruksiyalari semantik jihatdan soʻzlovchining subyektiv munosabatini ifodalovchi birliklar sifatida tavsiflanadi. Natijada kirish elementlarining faqat grammatik emas, balki semantik-pragmatik tabiatini ham hisobga olish zarurligi taʼkidlangan.

Kirish komponentlarining modal mohiyatini oʻrganishda A. I. Ostanin, V. V. Vostokov, E. S. Yakovleva, E. I. Belyayeva va I. V. Stolyarova kabi olimlarning ilmiy ishlari muhim oʻrin tutadi. Ular kirish konstruksiyalari orqali ifodalanuvchi ishonchlilik, ehtimollik, qatʼiylik, shubha, taxmin va baholash kabi modal maʼnolarni tahlil qilganlar. Tadqiqotlar natijasida kirish birliklari nutqning subyektiv modal qatlamini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligi isbotlangan. Ayniqsa, ilmiy va publitsistik matnlarda muallif pozitsiyasini ifodalashda kirish konstruksiyalarining ahamiyati yuqori ekanligi qayd etilgan.

Tilshunoslikda kirish elementlarining nutq bilan oʻzaro munosabatini tadqiq etishga ham katta eʼtibor qaratilgan. Xususan, A. M. Peshkovskiy, A. A. Shaxmatov, A. I. Anikin va A. G. Rudnev kirish birliklarining nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlarini oʻrganib, ularning kommunikativ vazifalarini aniqlashga harakat qilganlar. Ularning fikricha, kirish konstruksiyalari matn tarkibidagi alohida semantik boʻlaklarni bogʻlash, muallifning fikriga aniqlik kiritish, izoh berish yoki bayonning mantiqiy ketma-ketligini taʼminlash kabi vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan kirish birliklari matnning ichki yaxlitligini saqlashda muhim vosita hisoblanadi.

Kirish konstruksiyalarining turli gap turlari va matn tarkibidagi funksional xususiyatlari V. V. Amosova, L. V. Anisimova, G. A. Zolotova, A. M. Baranov va I. M. Kobozeva tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur olimlar kirish birliklarining ilmiy, badiiy, publitsistik va soʻzlashuv uslublaridagi qoʻllanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilganlar. Tadqiqotlar natijasida kirish konstruksiyalarining har bir funksional uslubda turlicha vazifani bajarishi, ularning semantik yuklamasi va pragmatik ahamiyati kommunikativ maqsadga bogʻliq ravishda oʻzgarishi aniqlangan.

Kirish soʻzlarning tarixiy taraqqiyoti ham tilshunoslikda alohida tadqiqot yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. V. A. Gluxova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda kirish birliklarining shakllanishi, rivojlanishi va til tizimidagi evolyutsion oʻzgarishlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar kirish konstruksiyalarining zamonaviy holatini tushunish hamda ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash imkonini beradi.

Ilmiy va oʻquv-metodik adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, kirish konstruksiyalarining semantik tabiati, sintaktik maqomi, pragmatik imkoniyatlari va aktualashuv mexanizmlariga oid masalalar hozirgi kunda ham toʻliq yechimini topmagan. Ayniqsa, kirish birliklarining ilmiy matnlardagi funksional yuklamasi, ularning muallif pozitsiyasini ifodalashdagi roli hamda matnning mantiqiy-kompozitsion tuzilishini shakllantirishdagi ahamiyati zamonaviy tilshunoslikning dolzarb tadqiqot yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda.

Ilmiy matnning eng muhim belgilaridan biri unda kirish konstruksiyalarining faol qoʻllanishidir. Ilmiy uslubda mazkur birliklar fikrning izchilligini taʼminlash, dalillarni tartibli ravishda bayon qilish, sabab-oqibat munosabatlarini koʻrsatish, xulosalarni asoslash hamda muallifning ilmiy pozitsiyasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, “birinchidan”, “ikkinchidan”, “demak”, “shunday qilib”, “ehtimol”, “albatta”, “koʻrinadiki” kabi kirish birliklari ilmiy matnning mantiqiy tuzilishini shakllantiruvchi muhim vositalar hisoblanadi.

Shuningdek, kirish konstruksiyalari ilmiy matnda axborotning aniqligi va ishonchligini taʼminlashga ham xizmat qiladi. Ular yordamida muallif oʻz fikrining ishonchlilik darajasini, ilmiy taxmin yoki ehtimollik xarakterini ifodalashi mumkin. Natijada ilmiy matnning obyektivligi saqlanadi va oʻquvchi uchun axborotni toʻgʻri talqin qilish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli kirish konstruksiyalari ilmiy kommunikatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Demak, kirish konstruksiyalari til tizimining murakkab va koʻp qirrali birliklari boʻlib, ular

sintaktik, semantik va pragmatik jihatdan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ularning ilmiy matndagi qo'llanish xususiyatlarini chuqur o'rganish matn lingvistikasi, pragmalingvistika hamda funksional grammatikaning dolzarb masalalarini hal etishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kirish konstruksiyalarining semantik jihatdan tahlili P. A. Lekant tahriri ostidagi darslikda taklif etilgan tasnifga asoslangan holda amalga oshirilgan. Muayyan faktlarga tayangan holda ilmiy tadqiqotlarning qiymati oshadi, shu sababli ilmiy (lingvistik) matnlarda faktlarning ketma-ketligini ko'rsatuvchi kirish konstruksiyalari eng keng qo'llaniladigan guruhlardan biridir [6; 55–56-b.].

Tahlil ilmiy (lingvistik) matnlarda mazkur kirish birliklarining qo'llanishiga xos bir qator xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi. *Moreover, besides, further, in addition, on the one hand, on the other hand* kabi kirish konstruksiyalari matnning bir bo'lagidan ikkinchi bo'lagiga o'tishni ta'minlaydi, qo'shimcha muhim axborotni kiritadi va shu bilan birga adresat diqqatini ushbu axborotga jalb etuvchi signal vazifasini bajaradi [1; 15–22-b.].

Xuddi shunday semantik xususiyatga ega bo'lgan hamda vaqt ketma-ketligini ham ifodalovchi kirish birliklari *firstly, secondly, the main thing, mainly, first of all, in turn, finally, at first sight, above all* kabi shakllarda uchraydi. *For example, in particular, incidentally* kirish birliklari esa umumiy va xususiy munosabatni ifodalaydi. *For example* ilmiy matnga ilustrativ material kiritadi, *in particular* esa aniqroq tavsiflash vazifasini bajaradi, *incidentally* esa qo'shimcha, asosiy mazmunga bevosita bog'liq bo'lmagan izohni ifodalaydi. *By the way* kirish so'zi esa tasodifiy assotsiativ izohni kiritib, asosiy mazmunga bevosita bog'liq bo'lmagan, lekin qiziqarli qo'shimcha axborotni bildiradi [3; 20–21-b.], [4; 11–16-b.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur kirish konstruksiyalari qo'llanilgan gaplar ilmiy matn tarkibida turli qo'shimcha semantik ma'nolarni hosil qilishi mumkin. Xususan, ular shart, natija, sabab-oqibat, izohlash yoki qarama-qarshilik kabi ma'no munosabatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday semantik tushlarning shakllanishi nafaqat kirish konstruksiyasining o'ziga, balki uning qo'llanish konteksti, matndagi sintaktik qurilish hamda bog'lovchi vositalarning xususiyatlariga ham bevosita bog'liqdir [8; 12–13-b.].

Shu sababli bir xil kirish konstruksiyasi turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha funksional yuklama kasb etishi mumkin. Bu esa ilmiy nutqning mazmuniy murakkabligi va ko'p qatlamliligini ta'minlaydi [10; 51–53-b.].

Ilmiy matnlarda *for example, for instance, namely* kabi kirish birliklari ko'pincha nazariy fikrlarni aniq dalillar yoki misollar bilan mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Ular muallif tomonidan ilgari surilgan g'oya yoki ilmiy xulosaning ishonchligini oshirish, o'quvchi e'tiborini muayyan faktlarga qaratish hamda mavzuning mohiyatini yanada ravshanroq ochib berishga xizmat qiladi [13; 5–6-b.].

Ayniqsa, murakkab ilmiy tushunchalar izohlanayotgan holatlarda bunday konstruksiyalar matnning tushunarlilik darajasini sezilarli ravishda oshiradi. Ayrim hollarda bir xil kirish konstruksiyasining ketma-ket gaplar yoki abzatslarda takroran qo'llanishi ham kuzatiladi [12; 33–36-b.].

Bunday takrorlar tasodifiy hodisa bo'lmay, muallifning muhim ilmiy g'oya yoki konseptual jihatga alohida urg'u berish, o'quvchi diqqatini mazkur masalaga qayta-qayta yo'naltirish maqsadi bilan izohlanadi [9; 66–76-b.].

Shuningdek, ilmiy matnda faktlar, hodisalar yoki tadqiqot bosqichlarining izchil ketma-ketligini ifodalovchi kirish konstruksiyalari alohida ahamiyatga ega. *Firstly, secondly, subsequently, thereafter, finally* kabi birliklar ilmiy fikrning mantiqiy rivojlanishini ta'minlaydi, tadqiqot jarayonining bosqichma-bosqich tavsiflanishiga yordam beradi hamda ilmiy bayonning tartibli va tizimli bo'lishini kafolatlaydi [17; 17–19-b.].

Natijada o'quvchi ilmiy ma'lumotlarni yaxshiroq qabul qiladi va tadqiqotning metodologik asoslarini aniqroq anglaydi. Shu jihatdan mazkur konstruksiyalar ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchligi va dalillanganligini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Qarama-qarshilik ma'nosini ifodalovchi kirish konstruksiyalari esa ilmiy matnlarda nisbatan kamroq uchraydi. Buning asosiy sababi shundaki, bunday birliklarning ortiqcha qo'llanilishi matnning semantik murakkabligini oshirib, axborotni idrok etish jarayonini qiyinlashtirishi mumkin [19; 22–26-b.].

Shunga qaramay, ilmiy munozara va tahlil jarayonida *however, on the contrary, instead, nevertheless, nonetheless, though* kabi konstruksiyalar muhim funksional vazifani bajaradi. Ular turli ilmiy qarashlarni qiyoslash, mavjud nazariyalar o'rtasidagi tafovutlarni ko'rsatish, muqobil yondashuvlarni taqdim etish hamda tadqiqot natijalarining ziddiyatli jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Aynan shu sababli bunday konstruksiyalar ilmiy diskursning tanqidiy va analitik xarakterini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [14; 32–35-b.].

Bundan tashqari, kirish konstruksiyalari yordamida ilmiy bayon turli semantik munosabatlar bilan boyitiladi. Jumladan, ular istisno, shartlilik, sabab-oqibat, gradatsiya, umumiy va xususiy ma'lumotlar o'rtasidagi bog'liqlik, taqqoslash hamda xulosa chiqarish kabi munosabatlarni ifodalash imkonini beradi. Natijada matnning nafaqat mantiqiy izchilligi, balki pragmatik samaradorligi ham ortadi. Kirish konstruksiyalari ilmiy kommunikatsiyada muallif va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi, axborotning to'g'ri talqin qilinishini ta'minlovchi hamda ilmiy fikrning izchil rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi.

Shunday qilib, kirish konstruksiyalari ilmiy matnning kompozitsion yaxlitligini, semantik bog'liqligini va kommunikativ aniqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning funksional imkoniyatlari faqatgina gaplar yoki matn qismlarini bog'lash bilan cheklanmaydi; aksincha, ular ilmiy diskursning mantiqiy tuzilishini shakllantiradi, argumentatsiyani kuchaytiradi va ilmiy axborotning samarali uzatilishiga xizmat qiladi. Shu bois kirish konstruksiyalarini o'rganish zamonaviy matn lingvistikasi, diskurs tahlili va ilmiy kommunikatsiya nazariyasining dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA

Ilmiy matnda kirish konstruksiyalarining semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, ular matnning mantiqiy izchilligi, axborotning tartibli berilishi va kommunikativ aniqligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Kirish birliklari ilmiy nutqda faqat qo'shimcha element sifatida emas, balki fikrlar o'rtasidagi semantik bog'liqlikni mustahkamlovchi asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari kirish konstruksiyalarining turli semantik guruhlariga ega ekanini tasdiqlaydi: ular faktlarning ketma-ketligini ifodalash, umumiy va xususiy munosabatni ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumot kiritish, axborot manbasini bildirish hamda qarama-qarshi fikrlarni bog'lash kabi vazifalarni bajaradi.

Shuningdek, kirish konstruksiyalarining qo'llanish chastotasi va funksiyasi ilmiy matnning uslubiy xususiyatiga bog'liq bo'lib, ayniqsa ilmiy (lingvistik) matnlarda ular dalillilik va ishonchlikni kuchaytiradi. Qarama-qarshilikni ifodalovchi kirish birliklari esa nisbatan kam qo'llanadi, chunki ilmiy uslubda aniq va izchil bayon ustuvor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Виноградов В. В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М.: Высшая школа, 1972. 614 с.
2. Корнилов А. А. Теория языковых единиц. М.: Наука, 1989. 256 с.
3. Панфилов В. З. Грамматика и логика. М.: Наука, 1971. 240 с.
4. Аникин А. И. Вводные конструкции в современном русском языке. М.: Просвещение, 1985. 180 с.
5. Студнева А. И. Семантика и функции вводных единиц. М.: Наука, 1990. 210 с.
6. Лекант П. А. Современный русский литературный язык. М.: Высшая школа, 2004. 462 с.
7. Василенко Л. И. Грамматические особенности вводных конструкций. СПб.: Изд-во СПбГУ, 1998. 176 с.
8. Останин А. И. Модальность и вводные компоненты предложения. М.: Наука, 1987. 195 с.
9. Востоков В. В. Категория модальности в русском языке. М.: Просвещение, 1983. 224 с.
10. Яковлева Е. С. Вводные конструкции и их модальные значения. М.: Наука, 1995. 188 с.
11. Беляева Е. И. Модальность в системе языка и речи. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2002. 256 с.
12. Столярова И. В. Функционально-семантические особенности вводных единиц. М.: Наука, 2001. 203 с.
13. Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. М.: Языки славянской культуры, 2001. 544 с.
14. Шахматов А. А. Синтаксис русского языка. М.: Эдиториал УРСС, 2001. 624 с.
15. Руднев А. Г. Вводные слова и предложения в современном русском языке. М.: Просвещение, 1975. 167 с.
16. Амосова В. В. Функциональная грамматика современного русского языка. М.: Наука, 1994. 278 с.
17. Анисимова Л. В. Текст и вводные конструкции. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2003. 214 с.
18. Золотова Г. А. Коммуникативные аспекты русского синтаксиса. М.: Наука, 1982. 368 с.
19. Баранов А. Н. Лингвистическая прагматика и текст. М.: Наука, 1993. 288 с.
20. Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. М.: Эдиториал УРСС, 2000. 352 с.